

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR NUTQIY MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR TAHLILI

Xaydarova Gulchiroy Bozorboy qizi

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

+998999117113

xaydarovagulchiroy012gmail.com

Annotatsiya: Maqloda mavzu yuzasidan hukumat va Prezident qarorlari, farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar mohiyati, ajdodlarimiz merosida nutq ko'nikmalari masalalari yoritilgan, xorijiy hamda yurtimiz olimlarining yondashuvlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, lug'at, rivojlantiruvchi texnologiya, nutq va muloqot, erkin muloqot, maktabgacha yosh, kommunikativ kompetentsiya.

Аннотация. В статье освещается сущность правительственных и президентских постановлений, указов и иных нормативных актов по теме, вопросы речевых навыков в наследии наших предков, излагаются подходы зарубежных и отечественных ученых.

Ключевые слова: инновационные технологии, словарный запас, развивающие технологии, речь и общение, свободное общение, дошкольный возраст, коммуникативная компетентность.

Annotation: The article highlights the essence of government and presidential decrees, decrees and other normative acts on the topic, issues of speech skills in the heritage of our ancestors, outlines the approaches of foreign and domestic scientists.

Keywords: innovative technologies, vocabulary, developing technologies, speech and communication, free communication, preschool age, communicative competence.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim texnologiyalari rivojlangan mamlakatlar bilan bellasha oladigan, sifatli ta'lim berish uchun yetarli imkoniyatlarga ega bo'lgan mamlakatda yashamoqdamiz. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-2021yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorida; maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, jismoniy, o'stirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratildi [1].

Jumladan, 2017-yilda 5200 ta Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va 200 dan ortiq nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat olib borgan. O'zbekiston

Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror ijrosi o'laroq bugungi kunda 29,400 dan ortiq Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, 22,800 dan ortiq nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, bundan 830 dan ortiq nodavlat MTT, 20,600dan ortiq oilaviy turdagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, 1300 dan ortiq Davlat xususiy sherikchilik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini boshladi. Bugungi kunda Respublikamiz bo'yicha 2 million 900 mingdan ortiq 3-7 yoshli bolalar mavjud va ulardan 2 million 100 mingdan ortig'i maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrab olindi. Quvonarli jihati shuki, 2017-yilda maktabgacha ta'limga qamrov darajasi 27% bo'lsa, bugungi kunga kelib bu ko'rsatkich 71,8%ga ko'tarildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining tobora ortib borishi malakali, har jihatdan bilim va salohiyatli, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini amaliyotga keng tadbiiq eta oladigan, jonkuyar pedagog-tarbiyachilarga bo'lgan extiyoj ortishini ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga sifatli ta'lim berish uchun keng shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, 2018-yilning 19-martida "Talim tizimida pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va takomillashtirish"ga bag'ishlangan yig'ilishda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab, bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning kreativ bilim va salohiyatini yuksaltirishni amalga oshirmaslik, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi" [2] -deya ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining alohida moddasida: "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi" deyilgan [3].

Ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachi bolalarda sog'lom, erkin fikrlash va bilish faoliyatini yo'lga qo'yish zarur. Sifatli ta'lim faoliyatini rivojlantirishni esa uzluksiz ta'lim tizimining ildizi bo'lib hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimidan boshlash zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga qadam qo'ygan har bir bolaning kelajagi, ta'lim-tarbiyasi, dunyoqarashi, jamiyatda o'z o'rnini topa bilishi, atrofda yuz berayotgan hodisalarga mustaqil munosabat bildira olishi, shaxsiy manfaatlarini xalq manfaati bilan uyg'unlikda ko'radigan, barkamol inson bo'lib tarbiyalanishi pedagog-tarbiyachilarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Insonning nutqi va muloqoti uning ichki dunyosi, ma'naviy qiyofasi, muomalasi, odobi, xulq-atvori, bilim darajasi, fikrlash doirasining kengligi yoki torligi, fahm-farosati, mustaqil hayotga tayyor yoki tayyor emasligi uning nutqida o'z aksini topadi. Kimning tili boy bo'lsa, nutqiy muloqot faoliyatida so'zlarni badiiy til asosida to'g'ri, aniq, ravon, ifodali talaffuz qilsa, o'z ona tiliga chuqur hurmat va ehtirom bilan qarasa, u kishilar ichida bilimli va komil inson sanalib, xalq orasida obro'-e'tibor qozonadi. Shuning uchun xalqimiz: "Tili boyning o'zi boy", "Til yurakning kaliti" deb bejiz aytmagan. Bu borada sharq va g'arb olimlari ko'plab izlanishlar olib borishgan[11,36].

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyida keltirilgan: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili-bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar" degan fikrlari inson kamolotida til, nutq va muloqotning naqadar ahamiyatli ekanini ko'rsatib turibdi.

Olam ahlini ulkan ilmiy va ijodiy merosi bilan haligacha lol qoldirib kelayotgan ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniny, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy kabi ulug' allomalarimiz nutq va muloqotning inson hayotidagi o'rni haqida ko'plab fikrlarni bayon qilganlar. Masalan, Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida inson fozilligining muhim belgilaridan biri sifatida quvvai notiqa (nutq quvvati)ni ajratadi. Uning fikricha, inson dunyoga kelishi bilan o'zini boqadigan quvvatga ega bo'ladi. Bu g'izolantiruvchi (oziqlantiruvchi) quvvat sanaladi. Undan so'ng inson o'z takomili yo'lida turli quvvatlarni qo'lga kiritadi. Masalan, mutoxayyila quvvati (xayol qilish, umumlashgan obrazlar yaratish), aql quvvati va boshqalar. Insonning olamni bilish jarayonida notiqa quvvatining xizmati katta ekanligini ta'kidlaydi"[4,87].

Nafaqat Sharq, balki butun dunyo tib ilmidan o'ziga munosib o'rin olgan ulug' bobomiz Ibn Sino inson hayvondan aqli va tili bilan farq qilishini, shuning uchun insonning eng barkamoli – oqil va so'zga chechani ekanligini aytadi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "Odobning boshi tildir" degan maqolining o'zidan inson nutqining jozibasi, odobida aks etishini anglasak bo'ladi. Alloma Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonida "Til ardami" (til odobi)da inson nutqining jamiyatdagi va hayot faoliyatidagi o'rni to'g'risida bir qancha fikrlar qoldirgan.

Buyuk bobokalonimiz Amir Temur insonning hayotida nutqiy muloqotning aniqligi va rostligini yuksak qadrlagan va o'z hayot yo'lida mardlik, ravon nutq, vaziyatdan kelib chiqqan holda atrofdagilarga to'g'ri muomalada bo'lgan va boshqalardan ham shuni talab qilgan.

So'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning so'z va o'tkir nutq, til va jamiyat borasidagi fikrlari alohida ahamiyatlidir. So'z dahosiga daho so'zchi sifatida adoqsiz ehtirom va inja sezgi bilan munosabatda bo'lgan adib o'z asarlarining

aksariyatida, xususan, muhtasham “Xamsa”sining barcha dostonlari (alohida-alohida boblar)da, “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Nazm ul-javohir” va boshqa ko‘plab asarlarida so‘zning buyuk qudrati va nutq mahoratining xosiyatiga oid betakror fikrlarni bayon qilgan. “Insonni so‘z ayladi judo hayvondin” degan g‘oyasining dalolati sifatida Alisher Navoiy nutq odobi, so‘zga sohiblik, so‘zning orqa-o‘ngini va uning nutqdagi hamda muloqotdagi o‘z o‘rnini bilish kabi fazilatlarini inson axloqining tamallaridan biri deb hisoblagan, buni jamiyatga anglatish borasida ham amaliy, ham nazariy fikrlarni ilgari surgan.

Ma’lumki, til tilsimining qudratini teran tasavvur etish va bu qudratni tugal ishga solish uchun muntazam mahorat va malaka talab qiladigan narsa tilning o‘z mohiyatida mavjud. Til mohiyatan bitmas-tuganmas, cheksiz-chegarasiz ifoda imkoniyatlarining jamidir. Alisher Navoiy betakror iste’dodi quvvati bilan buqudratni zanjirband qila olgan alloma sifatida ayni imkoniyatlarni ichdan ko‘ra va ko‘rsata bilgan. Shuning uchun ham u tildagi mavjud ifoda imkoniyatlaridan nutq vaziyati va maqsadiga eng muvofiq‘ini tanlash oson emasligini, so‘zlovchi bu boradagi mahoratini oshirishga har vaqt e’tibor bilan qaramogi shartligini ta’kidlagan.

Shoh va shoir bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nutqning sodda, ravon va aniq bo‘lishiga, nutqiy malakaning yuqori bo‘lishi lozimligiga alohida e’tibor bergan. Uning xoh nazmiy bo‘lsin, xoh nasriy bo‘lsin, barcha asarlarida nafis nutqning nodir namunalarni ko‘rib, huzurlanish mumkin.

K.D.Ushinskiy bolalarni ona tilida o‘qitishning zarurligini asoslab, bolalarga ona tilini dastlabki o‘qitish metodikasini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o‘zlashtirishlarining til bilan tafakkurning o‘zaro munosabatlarini falsafiy jihatdan chuqur anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘qitishga asoslangan xususiyatlari va qonuniyatlari borasida o‘z fikrlarini bildib o‘tgan.

Bolalarda nutqiy muloqot va lug‘atni egallab olishning eng muxim bosqichi bu maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy-muloqotda faollikni shakllantirish masalalari birlamchi holat hisoblanadi. Muloqot madaniyatini shakllantirish kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqotlarimiz tahlili maktabgacha yoshdagi bolalarda, ayniqsa katta va tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarida, nutqiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi erkin muloqotni ta’minlashda zamonaviy ta’lim texnologiyalar, ilg‘or metotik qo‘llanmalar ustida ishlashni yo‘lga qo‘yish zarur ekanligini ko‘rsatmoqda.

Bolalarda nutqiy muloqotni rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: “Nutqni o‘stirish va rivojlantirish jarayoni bola lug‘atining va so‘zlarning

assotsiatsiya asosida bog‘lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o‘zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatdan o‘zgarish jarayonidir, zero u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir”[7,104].

Xususan V.I.Loginova, YU.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, E.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o‘zlashtirib olishlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Bolalar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar bolalarda nutqning morfologik va sintaktik tomonlarini shakllantirish F.A.Soxin, M.I.Popova, A.V.Zaxarova, V.I.YAdeshko, A.G.Tambovseva kabi olimlar ona tilining so‘z hosil qilish tizimi xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, bolalar nutqining grammatik tuzilishini takomillashtirishga oid pedagogik ishda nafaqat odatdagi grammatik xatoliklarni o‘rganish va tuzatishga, balki birinchi navbatda grammatik umumlashmalarni shakllantirishga e‘tiborni qaratish zarurligini isbotlashgan [8].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ravon nutqi tadqiqotchilari E.I.Tixeeva, E.A.Flerina, A.M.Leushina, L.A.Penevskaya va boshqalar bolalar og‘zaki nutq va hikoya qilishni o‘zlashtirishining o‘ziga xos xususiyatlari, dialogik va monologik nutqning o‘zaro bog‘liqligini chuqur tushunish asosiga quriladigan ravon nutqni o‘qitish tizimiga asos solishgan. Ular tomonidan bolalar hikoyalari tasniflab chiqilgan bo‘lib, uning asosini fikr bildirish manbasi: o‘yin predmetlarni tavsiflash, adabiy matnlar, suratga qarab hikoya qilish, ijodiy hikoya qilish, jamoa tajribasidan misol keltirish tashkil etadi. N.I.Jinkin ta‘limotida “Til qanchalik oldin egallab olinsa, bilimlar ham shunchalik oson va to‘liqroq o‘zlashtiriladi”[9,77] degan fikr olg‘a suriladi.

E.A.Flerina “Maktabgacha tarbiya muassasalarida jonli so‘z” nomli maktabgacha tarbiya yo‘nalishidagi bilim yurtlari va institutlar uchun birinchi o‘quv qo‘llanmasida aks ettirgan. Ushbu qo‘llanmaning asosiy bo‘limlari og‘zaki nutq, suxbat, badiiy o‘qish, bolalarga hikoya qilib berish hamda bolalarning o‘zlari hikoya qilishi orqali nutqiy muloqotiga ijobiy ta‘siri haqida batafsil yoritib bergan. Ye.A.Flerinaning badiiy asarga san‘at asari sifatida katta e‘tibor bergan va badiiy matnni o‘quvchiga yetkazishning turli usullarini, jumladan o‘qilgan asar bo‘yicha suhbat o‘tkazish usulini ishlab chiqqan. U “maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish muammosini tor darajada hal etish”ning salbiy oqibatlarini haqida ogohlantirgan va har bir yosh davrning nutqiy muloqotining o‘ziga hosligini ta‘kidlagan: “Bolalar bevosita hayot bilan muloqotga kirishish yo‘li bilan, tengdoshlari va kattalar misolida hamda mashg‘ulotlar va maxsus mashg‘ulotlarda tarbiyachining ko‘rsatib o‘tishi orqali o‘qib o‘rganadilar” [5,145]. Bundan korinadiki tarbiyachining nutq va badiiy muloqoti qanchalik ravon, tushunarli, sog‘lom bo‘lsa bolalarda ham kutilgan natijaga erishish shunchalik aniq bo‘lishini aytib o‘tgan”.

F.A.Soxin, O.S.Ushakova tomonidan ravon nutqni shakllantirishning turli jihatlarini bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ravon nutqni baholashning shunchaki mantiqlilik, izchillikdan ko'ra yanada aniqroq mezonlarini qidirishni galdagi vazifalardan biri qilib qo'ydi[10]. Ravonlikning asosiy ko'rsatkichi sifatida so'zlar, gaplar va fikrlarning qismlari o'rtasida zarur aloqa vositalaridan foydalangan holda, matnni tarkibiy jihatdan to'g'ri tuzish qobiliyatini shakllantirish qabul qilingan.

Ilmiy va amaliy tadqiqodchilarning yuqoridagi olib brogan ilmiy tajriba va tahlillari natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ona tilini o'qitish, ravon nutq va muloqotni to'g'ri shakllantirishga doir ishlar tizimi shakllana boshladi. Tarbiyachilar uchun ona tiliga doir qo'llanmalar, ta'lim muassasalaridagi eng yaxshi ish tajribalari haqida maqolalar, to'plamlar muntazam ravishda chop etila boshlandi. O.I.Soloveva tomonidan birinchi marta 1956-yili maktabgacha tarbiya yo'nalishidagi pedagogika bilim yurtlari uchun "Bolalar bog'chasida nutqni rivojlantirish va ona tilini o'qitish" nomli o'quv qo'llanmasi dunyo yuzinmi ko'rdi. 50-60 yillarda nutqni rivojlantirish metodikasida yangi bo'lim- grammatik to'g'ri nutqni shakllantirishga katta e'tibor berila boshlandi. Ushbu masalani yoritishda professor A.N.Gvozdev ulkan hissa qo'shdi, u o'zining "Bolalar nutqini o'rganish masalalari" nomli kitobida (1961) bolalarning ilk yoshdan boshlab grammatik tuzilishni o'zlashtirib olishlarining qonuniyatlarini ochib bergan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish O'zbekiston Respublikasida o'tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Maktabgacha ta'lim sohasidagi birinchi fan nomzodi A.V.Nikolskaya mahalliy millat bolalariga rus tilini o'qitish zarurligi masalasini ko'tarib chiqdi. U tomonidan o'tkazilgan sinov tadqiqotlari (1958-60 yillar) natijasida maktabgacha katta yoshli o'zbek bolalariga ruscha og'zaki nutqni o'rgatish metodikasining asosiy mazmuni belgilangan va uning asosiy masalalari ishlab chiqilgan[6].

XX asrning 70-yillarida A.V.Nikolskayaning ilmiy rahbarligi ostida E.M.Razbaeva tomonidan maktabgacha yoshdagi katta bolalarda o'qilgan asarlar asosida kattalar mehnatiga hurmatni tarbiyalash bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. S.O.G'ozieva tomonidan (E.M.Razbaevaning ilmiy rahbarligi ostida) maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o'zbek xalq og'zaki ijodidan (xalq ertaklari, o'yinlar) foydalanish asosida atrofdegilarga adolatli munosabatda bo'lishni shakllantirish masalalari tadqiq qilindi. Asta sekinlik bilan bolalar nutqiy muloqotining shakllanishi dolzarb va ahamiyatli ekani isbotlandi.

1979-yildan boshlab to bugungi kungacha maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tili va o'zga tilni (rus, o'zbek) o'qitish muammosi O'zbekiston olimlari, metodistlari, F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.SH.Nurmuhammedova, D.Babayeva va boshqalar tomonidan o'rganila boshladi. Olimlar bolalarni o'qitishni ularning yuqori darajadagi aqliy va nutqiy rivojlanish

darajasini ta'minlash, til qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradigan darajada optimal tashkil etish yo'llarini topish borasida faol ish olib bormoqdalar.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, nutq bolaga ayniqsa bog'cha yoshida inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochib beradi. Ravon nutq bola til boyligini qanchalik o'zlashtirganligining ko'rsatkichi hisoblanadi. Bolaning o'qiladigan va jamiyatda katta yoshli odam bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojining qondirilmasligi ular o'rtasida emotsional jihatdan begonalashuv va bola bilim darajasining pasayishiga olib keladi. Shunday ekan tarbiyachi-pedagoglarimizning bolaning til tizimini egallash borasidagi barcha yutuqlarini muloqotni ta'minlovchi mazmunli, keng yoyilgan fikr sifatida qaraladigan ravon nutqini, nutqiy muloqotning mazmunliligi, mantiqliligi, izchilligi va tinglovchiga ifodali yetib borishi uchun bor imkoniyat, bilim, ko'nikma va malakalarini ishga solishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-3090103>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yilning 19-martida "Ta'lim tizimida pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va takomillashtirish"ga bag'ishlangan yig'ilish. <https://president.uz/oz/lists/view/1162>
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
4. Hamidov A. O'qituvchi nutqi madaniyati (ma'ruza matn). Termiz davlat universiteti, 2017. <https://elib.buxdupi.uz/books/BHNPDB6vFI9yX7R.pdf>.
5. Е.А.Флери́на. Живое слово в дошкольных учреждениях. М.: 1993
6. D.R.Babayeva, G.O.Najmiddinova. Bolalar nutqini o'stirish. T.: T.: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
7. Леонтьев А.Н. Развитие разума Москва: Progress Publishers, 1981.
8. Яшина В. И., Алексеева М. М. Теория и методика развития речи детей : учебник для студ. учреждений высш. проф. образования. Москва : Издательский центр «Академия», 2013.
9. Жинкин Н.И. Грамматика и смысл // Язык и человек. — М.: Изд-во Моск.ун-та. 1970.
10. https://vk.com/wall-47691883_754.
11. Kodirov Valijon Abdurahmanovich. Maktabgacha bo'lgan ilk, kichik va o'rta yosh davrida bolalarda nutqiy kompetentsiya darajalari. Modern scientific challenges and trends: a collection scientific works of the International scientific conference. 2021 - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. Part 1. P.35-39.